



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,
13-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish	10
<i>Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna</i>	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi	21
<i>D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev</i>	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish	25
<i>Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	30
<i>Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi</i>	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
<i>Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi</i>	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar	39
<i>Axmedov Jaloliddin Oribovich</i>	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
<i>Baxramova Malika Muzaffarovna</i>	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari	47
<i>Choriyeva Zarina Anvarbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
<i>D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva</i>	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish	53
<i>Djurayeva Nargiza Kudratillayevna</i>	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
<i>Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna</i>	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
<i>G'ayratova Mohidil Zafar qizi</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi	69
<i>Maksetova Nurjamal Kuatovna</i>	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish	72
<i>Malikova Xurshida Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
<i>Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi</i>	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
<i>Muxammadova Ozoda Muzrabovna</i>	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
<i>N. G. Pulatova</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari	85
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari	89
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna</i>	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	



Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	193
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни	197
<i>Журабаев Абдукарим Маматкулович</i>	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема	200
<i>Зокиржонova Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	203
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar	205
<i>Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich</i>	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка	207
<i>Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна</i>	



OLIY TA'LIMDA TBLT METODIK MODEL ASOSIDA BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Djurayeva Nargiza Kudratillayevna

Xalqaro Nordic Universiteti Chet tillar kafedrasida katta o'qituvchisi,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida vazifaga asoslangan til o'qitish metodikasi (TBLT) doirasida baholash tizimini takomillashtirish masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqot Toshkent shahridagi International School of Finance, Technology and Science (ISFT) institutida 2-kurs talabalari ishtirokida o'tkazilgan tajriba asosida olib borilgan. Unda jami 42 nafar talaba qatnashib, ular tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida TBLT metodik modeli asosida ishlab chiqilgan kompleks baholash tizimi joriy etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy baholash usullari qo'llanildi. Tadqiqot natijalari vazifaga asoslangan baholash, analitik mezonlar va jarayonli baholash elementlari talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ayniqsa, kommunikativ aniqlik, nutq ravonligi va vazifa bajarish samaradorligi ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish kuzatildi. Maqolada TBLT asosidagi baholash tizimining afzalliklari hamda uni oliy ta'lim amaliyotiga joriy etish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: TBLT metodikasi, baholash tizimi, lingvistik kompetensiya, vazifaga asoslangan o'qitish, oliy ta'lim, kommunikativ kompetensiya, analitik baholash, rubrikalar, ESP.

Abstract: This article analyzes the issue of improving the assessment system within the framework of Task-Based Language Teaching (TBLT) in higher education. The study was conducted at the International School of Finance, Technology and Science (ISFT) in Tashkent among second-year students. A total of 42 students participated in the experiment and were divided into control and experimental groups. The experimental group was assessed using a comprehensive TBLT-based assessment model, while the control group followed traditional assessment methods. The findings confirm that task-based assessment, analytic criteria, and formative assessment elements significantly enhance the development of students' linguistic competences. Notable improvements were observed in communicative accuracy, fluency, and task performance. The article substantiates the advantages of TBLT-based assessment and highlights its potential for effective implementation in higher education practice.

Key words: TBLT methodology, assessment system, linguistic competence, task-based learning, higher education, communicative competence, analytic assessment, rubrics, ESP.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы совершенствования системы оценивания в рамках методики обучения языку на основе задач (TBLT) в высшем образовании. Исследование проведено в International School of Finance, Technology and Science (ISFT) (г. Ташкент) среди студентов второго курса. В эксперименте приняли участие 42 студента, разделённые на контрольную и экспериментальную группы. В экспериментальной группе была внедрена комплексная система оценивания, разработанная на основе модели TBLT, тогда как в контрольной группе применялись традиционные методы оценивания. Результаты исследования показали, что использование оценивания, ориентированного на выполнение задач, аналитических критериев и формирующего оценивания способствует более эффективному развитию лингвистических компетенций студентов. Наиболее значительные изменения наблюдались в показателях коммуникативной точности, беглости речи и успешности выполнения заданий. В статье обоснованы преимущества системы оценивания на основе TBLT и её потенциал для внедрения в практику высшего образования.

Ключевые слова: методика TBLT, система оценивания, лингвистическая компетенция, обучение на основе задач, высшее образование, коммуникативная компетенция, аналитическое оценивание, рубрики, ESP.

KIRISH

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida chet tilini o'qitish yondashuvlari sezilarli darajada o'zgarib, bilimga yo'naltirilgan modeldan kompetensiyaga asoslangan yondashuvga o'tish jarayoni kuchaymoqda. Bugungi kunda tilni bilishdan ko'ra, uni real kommunikativ va kasbiy vaziyatlarda qo'llay olish muhimroq deb qaralmoqda. Ushbu tendensiya xalqaro ta'lim siyosatida ham aks etib, o'quv natijalarini amaliy faoliyat bilan bog'lash zarurligini ta'kidlaydi ^[1].

Shu nuqtai nazardan, vazifaga asoslangan til o'qitish metodikasi (Task-Based Language Teaching - TBLT) samarali yondashuv sifatida ajralib turadi. Ushbu metodika o'quv jarayonini real hayotga yaqin vazifalar asosida tashkil etishni nazarda tutadi va talabalarning tilni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [2]. TBLTning nazariy asoslari kognitiv va sotsiokultural yondashuvlarga tayangan bo'lib, unda o'rganish jarayoni faol ishtirok va ijtimoiy hamkorlik orqali amalga oshadi [3].

Biroq amaliyotda muhim nomuvofiqlik kuzatiladi: o'qitish jarayoni kommunikativ yondashuv asosida olib borilsa-da, baholash tizimi ko'pincha an'anaviy shaklda qolmoqda. Natijada talabalarning haqiqiy kommunikativ kompetensiyasini to'liq baholash imkoniyati cheklanadi [4]. Bu holat ayniqsa moliya va iqtisod yo'nalishidagi talabalar uchun dolzarb bo'lib, ular tilni kasbiy faoliyat vositasi sifatida qo'llay olishlari zarur.

Shu sababli, TBLT metodik modeli doirasida baholash tizimini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga keladi. Zamonaviy tadqiqotlar vazifaga asoslangan baholash, formatif yondashuv va analitik mezonlardan foydalalanish talabalarning lingvistik kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi [5]. Bunday yondashuv baholashni o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rishga imkon beradi hamda uning shaffofligini oshiradi [6].

Mazkur tadqiqotda TBLT metodik modeli asosida ishlab chiqilgan baholash tizimining samaradorligi Toshkent shahridagi International School of Finance, Technology and Science (ISFT) institutida o'tkazilgan tajriba asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Vazifaga asoslangan til o'qitish metodikasi (Task-Based Language Teaching - TBLT) zamonaviy til o'qitish nazariyasida muhim o'rin egallaydi. Ushbu yondashuvning shakllanishi kommunikativ til o'qitish konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda tilni o'rganish jarayoni real muloqot faoliyati orqali amalga oshirilishi asosiy tamoyil sifatida qaraladi [2].

TBLTda "vazifa" tushunchasi markaziy o'rin tutadi va u o'quvchini ma'no yaratishga yo'naltirilgan faoliyatga jalb etuvchi asosiy birlik sifatida talqin etiladi. TBLT nazariyasining rivojlanishida Rod Ellis, David Nunan hamda Jane Willis kabi olimlarning hissasi katta. Xususan, Ellis vazifani til o'rganishda kommunikativ natijaga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ta'riflab, uning asosiy xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan [3].

Nunan esa vazifaga asoslangan o'qitishning amaliy modelini ishlab chiqib, uni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlarini ko'rsatib bergan [7].

Willis esa TBLTning uch bosqichli modeli (pre-task, task cycle, post-task) orqali o'quv jarayonini tizimli tashkil etish imkoniyatlarini yoritgan [5].

So'nggi yillarda TBLT metodikasining qo'llanilishi faqat o'qitish bilan cheklanmay, baholash tizimi bilan integratsiyasi masalasi ham keng muhokama qilinmoqda. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, agar o'qitish vazifaga asoslangan bo'lsa, baholash ham aynan shu faoliyatni aks ettirishi lozim [6]. Aks holda, o'quv jarayonida metodik nomuvofiqlik yuzaga keladi.

Baholash nazariyasida ham muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. An'anaviy yondashuvlarda baholash asosan yakuniy natijani aniqlashga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda formatif (jarayonli) baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Lyle F. Bachman va Adrian S. Palmer til baholash nazariyasida kommunikativ kompetensiyani kompleks tarzda baholash zarurligini ta'kidlaydi [8]. Ularning fikricha, baholash faqat lingvistik bilimlarni emas, balki tilni real vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini ham qamrab olishi kerak.

TBLT doirasida baholash tizimini tashkil etishda analitik mezonlar (rubrikalar) muhim vosita sifatida qaraladi. Bunday mezonlar yordamida talabaning nutq ravonligi, grammatik aniqligi, leksik boyligi va vazifani bajarish darajasi alohida-alohida baholanadi. Bu esa baholash jarayonining shaffofligini ta'minlab, talabaning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [9].

Shuningdek, ESP (English for Specific Purposes) kontekstida olib borilgan tadqiqotlar ham TBLT asosidagi baholash tizimining samaradorligini tasdiqlaydi. Tony Dudley-Evans va Maggie Jo St John ta'kidlashicha, kasbiy yo'naltirilgan til o'qitishda baholash vazifalari real ish faoliyatiga maksimal darajada yaqin bo'lishi kerak [10]. Bu ayniqsa moliya va iqtisod yo'nalishidagi talabalar uchun dolzarb hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham chet tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, xususan, TBLT metodikasining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Biroq mavjud ishlarning aksariyatida baholash tizimi masalasi yetarli darajada chuqur yoritilmagan. Shu jihatdan, TBLT metodik modeli asosida baholash tizimini ishlab chiqish va uni empirik asosda sinovdan o'tkazish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi [11].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT) metodik modeli doirasida ishlab chiqilgan baholash tizimining samaradorligini aniqlash maqsadida kvazi-eksperimental tadqiqot dizaynidan foydalanildi. Tadqiqot pre-test va post-test natijalarini taqqoslashga asoslangan bo'lib, tajriba va nazorat guruhlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash orqali baholash tizimining ta'siri tahlil qilindi.

Tadqiqot Toshkent shahridagi International School of Finance, Technology and Scienceda amalga oshirildi. Unda 2-kursda tahsil olayotgan jami 42 nafar talaba ishtirok etdi.

Ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi (21 nafar) va nazorat guruhi (21 nafar). Guruhlarni shakllantirishda talabalar til darajasi, o'quv sharoitlari va akademik ko'rsatkichlarining o'xshash bo'lishiga e'tibor qaratiladi, bu esa tadqiqot natijalarining ichki ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot uch bosqichda tashkil etildi. Birinchi bosqichda (pre-test) har ikkala guruh talabalarining lingvistik kompetensiyasining boshlang'ich darajasi aniqlanib, diagnostik baholash o'tkazildi. Ikkinchi bosqichda tajriba guruhida TBLT metodik modeli asosida ishlab chiqilgan baholash tizimi joriy etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy baholash usullari qo'llanildi. Uchinchi bosqichda (post-test) yakuniy natijalar aniqlanib, guruhlar o'rtasidagi o'zgarishlar taqqoslandi.

Quyida tadqiqotning umumiy dizayni sxematik tarzda keltirilgan:

Tajriba guruhi: Pre-test → TBLT asosidagi baholash → Post-test

Nazorat guruhi: Pre-test → An'anaviy baholash → Post-test

1-rasm: Tadqiqotning eksperimental dizayni

Tadqiqotda mustaqil o'zgaruvchi sifatida TBLT metodik modeli asosida ishlab chiqilgan baholash tizimi, bog'liq o'zgaruvchi sifatida esa talabalarning lingvistik kompetensiyasi darajasi belgilandi. Shu bilan birga, o'quv materiali, dars davomiyligi va o'qitish sharoitlari kabi omillar nazorat qilinib, tashqi ta'sirlarning minimalashtirilishiga erishildi. Tajriba guruhida joriy etilgan baholash tizimi kompleks xarakterga ega bo'lib, unda vazifaga asoslangan baholash, formatif baholash va summativ baholash elementlari uyg'unlashtirildi. Baholash jarayoni real kommunikativ vazifalar asosida tashkil etildi, ya'ni talabalar moliyaviy va kasbiy kontekstga yaqin bo'lgan topshiriqlarni bajarish orqali baholandi. Jarayon davomida muntazam ravishda qayta aloqa (feedback) berilib, talabalar o'z xatolarini tahlil qilish va ularni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi ^[12].

Baholash mezonlari analitik yondashuv asosida ishlab chiqildi. Unda kommunikativ aniqlik, grammatik to'g'rilik, leksik boylik, nutq ravonligi va vazifa bajarilish darajasi kabi ko'rsatkichlar alohida komponentlar sifatida baholandi. Bunday yondashuv baholash jarayonining shaffofligini ta'minlash bilan birga, talabalarning o'z-o'zini baholash va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Tadqiqotda lingvistik kompetensiya ko'p komponentli tizim sifatida ko'rib chiqildi. Baholash nafaqat grammatik bilimlar darajasini, balki tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini ham qamrab oldi. Shu bois pragmatik va diskursiv kompetensiyalar ham baholash jarayoniga integratsiya qilindi.

Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida diagnostik testlar (pre-test va post-test), kuzatuv metodi hamda yarim strukturaviy intervyulardan foydalanildi. Olingan natijalar deskriptiv statistika asosida tahlil qilinib, pre-test va post-test natijalari o'rtasidagi farq orqali talabalarning rivojlanish dinamikasi aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida baholash mezonlari oldindan standartlashtirildi va barcha ishtirokchilar uchun bir xil qo'llanildi. Baholash topshiriqlarining o'quv maqsadlariga mosligi kontent validligini ta'minladi, lingvistik kompetensiya komponentlarini aniq indikatorlar orqali o'lchash esa konstrukt validligini mustahkamladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida TBLT metodik modeli asosida ishlab chiqilgan baholash tizimining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlar natijalari taqqoslab tahlil qilindi. Tahlil pre-test va post-test natijalari asosida amalga oshirildi. Dastlabki diagnostik test natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikkala guruh talabalar lingvistik kompetensiya darajasi jihatidan deyarli bir xil ko'rsatkichlarga ega bo'lgan. Bu esa tajriba boshlanishida guruhlar o'rtasida sezilarli farq mavjud emasligini tasdiqlaydi va keyingi natijalarni obyektiv taqqoslash imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda tajriba va nazorat guruhlarining umumiy natijalari keltirilgan:

1-jadval: Tajriba va nazorat guruhlarining umumiy natijalari

Guruh	Pre-test (o'rtacha ball)	Post-test (o'rtacha ball)	O'sish (%)
Tajriba guruhi (n=21)	58	74	27.6
Nazorat guruhi (n=21)	57	64	12.3

Natijalardan ko'rinib turibdiki, har ikkala guruhda ham ma'lum darajada o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, tajriba guruhidagi o'sish ko'rsatkichi sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Xususan, tajriba guruhida o'rtacha ball 58 dan 74 ga oshib, 27.6% o'sish qayd etilgan. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 57 dan 64 ga oshib, 12.3% ni tashkil etgan. Bu farq TBLT asosidagi baholash tizimi talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda samaraliroq ekanligini ko'rsatadi^[13].

Lingvistik kompetensiya komponentlari bo'yicha natijalar

Tadqiqot davomida lingvistik kompetensiya bir nechta komponentlar asosida tahlil qilindi. Quyidagi jadvalda tajriba guruhidagi asosiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi keltirilgan:

2-jadval: Tajriba guruhida lingvistik kompetensiya ko'rsatkichlarining o'zgarishi

Ko'rsatkich	Pre-test	Post-test	O'sish (%)
Kommunikativ aniqlik	60	78	30.0%
Grammatik to'g'rilik	55	68	23.6%
Leksik boylik	57	73	28.0%
Nutq ravonligi	54	72	33.3%
Vazifa bajarilishi	59	80	35.6%

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, eng yuqori o'sish "vazifa bajarilishi" (35.6%) va "nutq ravonligi" (33.3%) ko'rsatkichlarida kuzatilgan. Bu holat TBLT metodikasining asosiy xususiyati – tilni real vazifalar orqali o'rganish bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, kommunikativ aniqlik va leksik boylik ko'rsatkichlarida ham sezilarli ijobiy o'zgarish qayd etilgan. Grammatik to'g'rilik bo'yicha o'sish nisbatan pastroq bo'lsa-da, u ham ijobiy dinamikani ko'rsatadi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, TBLT metodik modeli asosida tashkil etilgan baholash tizimi talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy baholash usullariga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq hisoblanadi^[14]. Tajriba guruhida kuzatilgan yuqori o'sish ko'rsatkichlari, ayniqsa kommunikativ aniqlik, nutq ravonligi va vazifa bajarish darajasida, baholash jarayonining o'quv faoliyati bilan bevosita integratsiyalashganligi bilan izohlanadi.

Tahlil natijalari shuni anglatadiki, vazifaga asoslangan baholash talabalarning tilni passiv o'zlashtirishidan ko'ra, uni faol qo'llashga yo'naltiradi. Bu esa o'z navbatida til birliklarini kontekstda qo'llash, fikrni mustaqil ifodalash va real kommunikativ vaziyatlarga moslashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, "vazifa bajarilishi" va "nutq ravonligi" ko'rsatkichlaridagi yuqori o'sish TBLT metodikasining amaliy yo'naltirilganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, natijalar baholash tizimining formatif komponenti muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. Muntazam feedback berilishi talabalar tomonidan xatolarni anglash va ularni bosqichma-bosqich tuzatish imkonini yaratdi. Bu esa o'rganish jarayonini faqat natijaga emas, balki rivojlanish dinamikasiga yo'naltirishga xizmat qildi.

Nazorat guruhi natijalari bilan taqqoslash esa an'anaviy baholash tizimining cheklanganligini ko'rsatadi. Bu guruhda ham ijobiy o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, u asosan grammatik va nazariy bilimlar bilan bog'liq bo'lib, kommunikativ ko'nikmalarda sezilarli siljish kuzatilmadi. Bu holat baholash tizimi va o'qitish metodikasi o'rtasidagi muvofiqlikning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari TBLT asosidagi baholash tizimi nafaqat bilim darajasini aniqlash, balki talabalarning tilni real vaziyatlarda qo'llash kompetensiyasini shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi. Bu esa baholashni o'quv jarayonining yakuniy bosqichi sifatida emas, balki uning ajralmas va rivojlantiruvchi elementi sifatida ko'rish zarurligini anglatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari TBLT metodik modeli asosida tashkil etilgan baholash tizimi talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar zamonaviy tadqiqotlar bilan uyg'un holda, vazifaga asoslangan yondashuv tilni o'rganish jarayonini faollashtirishini va uni real kommunikativ faoliyat bilan bog'lashini yana bir bor tasdiqlaydi^[15].



Tajriba guruhida kuzatilgan sezilarli ijobiy o'zgarishlar, ayniqsa kommunikativ aniqlik va nutq ravonligi ko'rsatkichlarida, Rod Ellis tomonidan ilgari surilgan vazifa markaziy rol o'ynaydigan o'qitish modelining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Ellis ta'kidlaganidek, vazifaga asoslangan faoliyat tilni o'rganishda tabiiy muhit yaratadi va talabning tilni real vaziyatlarda qo'llashiga imkon beradi [3].

Mazkur tadqiqot natijalari ham aynan shu fikrni empirik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, natijalar Jane Willis tomonidan taklif etilgan uch bosqichli model (pre-task, task cycle, post-task) samaradorligini ham bilvosita tasdiqlaydi. Xususan, post-task bosqichida amalga oshirilgan baholash va tahlil jarayoni talabalarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgani kuzatildi [5]. Bu esa baholash jarayonining o'quv faoliyatining ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari baholash tizimining formatif komponenti alohida ahamiyatga ega ekanligini ham ko'rsatdi. Muntazam feedback berilishi orqali talabalar o'z xatolarini anglab, ularni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu holat Lyle F. Bachman va Adrian S. Palmer tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiyani kompleks baholash zarurligi haqidagi qarashlarga mos keladi [7]. Ularning fikricha, baholash jarayoni nafaqat natijani aniqlash, balki o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlashga ham xizmat qilishi kerak.

Nazorat guruhi natijalari esa an'anaviy baholash tizimining cheklangan jihatlarini ochib berdi. Bu guruhda o'sish asosan grammatik bilimlar doirasida kuzatilgan bo'lsa, kommunikativ kompetensiya komponentlarida sezilarli siljish qayd etilmadi. Bu holat David Nunan tomonidan ilgari surilgan fikr - til o'qitishda bilimdan ko'ra faoliyat muhimroq ekanligi - bilan hamohangdir [16].

Shuningdek, ESP (English for Specific Purposes) kontekstida olingan natijalar ham muhim ahamiyatga ega. Moliya va iqtisod yo'nalishidagi talabalar bilan olib borilgan tajriba shuni ko'rsatdiki, real kasbiy vaziyatlarga yaqin vazifalar orqali baholash talabalarning tilga nisbatan motivatsiyasini oshiradi va o'rganilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini kengaytiradi. Bu holat Tony Dudley-Evans va Maggie Jo St John tomonidan ilgari surilgan ESP tamoyillariga mos keladi [9].

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida ayrim metodik qiyinchiliklar ham kuzatildi. Xususan, TBLT asosidagi baholash tizimini joriy etish o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Analitik rubrikalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llash dastlab murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ldi. Biroq vaqt o'tishi bilan bu tizim o'qitish jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim vositaga aylanishi kuzatildi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari TBLT metodik modeli asosida tashkil etilgan baholash tizimi nafaqat til ko'nikmalarini baholash, balki ularni rivojlantirish vositasi sifatida ham xizmat qilishini ko'rsatadi. Bu esa baholashni o'quv jarayonining yakuniy bosqichi sifatida emas, balki uning integral qismi sifatida qayta ko'rib chiqish zarurligini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT) metodik modeli doirasida ishlab chiqilgan baholash tizimining samaradorligi empirik asosda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, TBLT asosidagi baholash tizimi talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy baholash usullariga nisbatan sezilarli darajada samaraliroqdir. Ayniqsa, kommunikativ aniqlik, nutq ravonligi va vazifani bajarish ko'rsatkichlarida kuzatilgan ijobiy o'zgarishlar ushbu yondashuvning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida baholash tizimini o'quv jarayoniga integratsiyalashgan holda tashkil etish, formatif baholash elementlaridan foydalanish va analitik mezonlar asosida baholash talabalar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Bu esa baholashni faqat yakuniy natijani aniqlovchi vosita sifatida emas, balki o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari nolingvistik yo'nalishlarda, xususan, moliya va iqtisod sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun TBLT asosidagi baholash tizimi ayniqsa dolzarb ekanligini ko'rsatdi. Real kasbiy vaziyatlarga yaqin vazifalar orqali baholash talabalarning tilga nisbatan motivatsiyasini oshiradi va o'rganilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitishda baholash tizimini modernizatsiya qilish, xususan, TBLT metodik modeli asosida qayta tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Bunda analitik baholash mezonlarini ishlab chiqish, formatif baholashni keng joriy etish va baholashni kommunikativ vazifalar bilan uyg'unlashtirish muhim yo'nalishlar sifatida qaraladi. Kelgusida mazkur yo'nalishda tadqiqotlarni kengaytirish, turli ta'lim yo'nalishlari va darajalarida TBLT asosidagi baholash tizimini sinovdan o'tkazish, shuningdek, raqamli ta'lim platformalari bilan integratsiya qilish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari sifatida belgilanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the Implementation of Sustainable Development Goal 4. - Paris: UNESCO, 2015.
2. Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. - Oxford: Oxford University Press, 2003.
3. Ellis R. The methodological options for task-based language teaching // Language Teaching. - 2017. - Vol. 50(1). - P. 1-27.
4. Nunan D. Task-Based Language Teaching. - Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
5. Willis J., Willis D. Doing Task-Based Teaching. - Oxford: Oxford University Press, 2007.
6. Skehan P. A framework for the implementation of task-based instruction // Applied Linguistics. - 1996. - Vol. 17(1). - P. 38-62.
7. Bachman L.F., Palmer A.S. Language Testing in Practice. - Oxford: Oxford University Press, 1996.
8. Brown H.D. Language Assessment: Principles and Classroom Practices. - New York: Pearson Education, 2004.
9. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. - Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
10. Djurayeva N.K. The Significance of Lesson Plans in TBLT (Task-Based Language Teaching) Approach in ESP Classes Globally and in Uzbekistan. - 2025.
11. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. - Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
12. Widdowson H.G. Teaching Language as Communication. - Oxford: Oxford University Press, 1978.
13. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
14. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2012.
15. Qodirov Sh. Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar // Ta'lim va innovatsiya. - 2023. - №2. - B. 28-34.
16. To'raqulova M. Chet tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish // Ilmiy axborotnoma. - 2022. - №4. - B. 60-66.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.